



QASHQADARYO VOHASI DEHQONCHILIGI TARIXIDAN

Jumayev Bahrom,
QarDU mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada muallif Janubiy O'zbekistonning yirik va muhim viloyatlaridan biri hisoblangan Qashqadaryo vohasi tabiati va tarixiy-iqtisodiy taraqqiyoti, jumladan, vohadagi dastlabki dehqonlarning makonlarining shakllanishi jarayonlari, vohaning adir, tog'li va tog' oldi tumanlari, sug'oriladigan tekislik va keng dashtliklardan iborat hududni qamrab olgan bo'lib, tabiiy sharoitning o'ziga xosligi ko'p asrlar davomida voha iqtisodiyotining asosi bo'lgan chorvachilik, sug'oriladigan va lalmi dehqonchilik rivojiga zamin yaratganligini ilmiy dallillar asosida yoritib bergan.

Shuningdek, vohadagi mavjud yer mulklar–davlat yerlari, xususiy yerlar va vaqf yerlaridan iborat bo'lganligi, davlat yerlari manbalarda turli nomlar bilan atalganligi, zamini amlok, zamini podshoh, mulki podshoh va boshqa shunga o'xshash nomlar, jumlasidan davlat yerlari ijaraga berilib, tegishli soliqlar yig'ib olinganligi, davlat yerlaridan biri sanalgan o'lik yerlar manbalarda yabisat deb atalganligi, bunday nom olgan yerlar asosan, bir vaqtlar foydalanilib, keyin tashlab ketilgan yerlar hisoblanganligi, bu kabi yerlarning taqdirini davlat hal etgan ya'ni, sotish, foydalanishga berish (ijara sifatida), mukofot tarzda xususiy qilib berish ham mumkin bo'lganligi ilmiy ma'lumotlar asosida dalillangan.

Tayanch so'zlar: Qashqadaryo vohasi, tarixiy-iqtisodiy holat, dehqonlarning makonlari, sug'oriladigan yerlar, davlat yerlari, xususiy yerlar, vaqf yerlari, unumdor yerlar, voha bog'dorchiligi, sug'orma dehqonchilik, obikor yerlar, lalmikor yerlar, keng dashtliklar, suv manbalari.

Аннотация. В данной статье автор рассматривает природу и историко-экономическое развитие Кашкадарьинского оазиса, одного из крупнейших и важнейших регионов Южного Узбекистана, включая процессы формирования поселений первых земледельцев в оазисе, состав территории оазиса, включающей холмистые, горные и предгорные районы, орошаемые равнины и обширные степи, и, основываясь на научных данных, объясняет, что уникальность природных условий создала основу для развития животноводства, орошаемого и неорошаемого земледелия, которые на протяжении многих веков составляли основу экономики оазиса.

Научные данные также подтверждают, что существовавшие в оазисе земли состояли из собственности — государственных земель, частных земель и вакфных земель; что государственные земли в источниках назывались различными именами, такими как замини аmlok, замини цашох, кулики цашох и другими подобными названиями, включая государственные земли, которые сдавались в аренду и с которых взимались соответствующие налоги; что «мертвые земли», считавшиеся частью государственных земель, в источниках назывались ябисат; что земли, получившие такие названия, в основном считались землями, которые когда-то использовались, а затем были заброшены; и что судьба таких земель решалась государством, то есть их можно было продать, сдать в аренду или передать частным лицам в качестве вознаграждения.

Ключевые слова: Кашкадарьинский оазис, историко-экономическая ситуация, крестьянские поселения, орошаемые земли, государственные земли, частные земли, земли, находящиеся в дар, плодородные земли, оазисное садоводство, орошаемое земледелие, плодородные земли, плодородные земли, обширные степи, источники воды.



Abstract. *In this article, the author discusses the nature and historical and economic development of the Kashkadarya oasis, one of the largest and most important regions of Southern Uzbekistan, including the processes of formation of the settlements of the first farmers in the oasis, the area of the oasis consisting of hilly, mountainous and foothill districts, irrigated plains and vast steppes, and based on scientific evidence, he explains that the uniqueness of the natural conditions created the basis for the development of livestock breeding, irrigated and dry farming, which have been the basis of the oasis economy for many centuries.*

It is also proven based on scientific data that the existing land in the oasis consisted of properties - state lands, private lands, and waqf lands, that state lands were called by different names in the sources, such as zamini amlok, zamini tsashoh, kuliki tsashoh, and other similar names, including state lands that were leased and the corresponding taxes were collected, that dead lands, which were considered part of state lands, were called yabisat in the sources, that lands that received such names were mainly considered lands that were once used and then abandoned, and that the fate of such lands was decided by the state, that is, it was possible to sell them, give them for use (as a lease), or give them to private individuals as a reward.

Keywords: *Kashkadarya oasis, historical and economic situation, peasant settlements, irrigated lands, state lands, private lands, endowment lands, fertile lands, oasis gardening, irrigated agriculture, fertile lands, vast steppes, water sources.*

Kirish. Qashqadaryo vohasi shimoli-sharqdan Tojikiston Respublikasi , sharqdan Surxon vohasi ,janubi-g'arbdan Turkmaniston hududlari bilan chegaradosh. Viloyat O'zbekiston Respublikasining janubi g'arbida Zarafshon va Amudaryo, Hisor va Zarafshon tizma tog'lari o'rtasida joylashgan.

Janubiy O'zbekistonning yirik va muhim viloyatlaridan biri hisoblangan Qashqadaryo vohasi tabiati va tarixiy-iqtisodiy holatiga ko'ra O'zbekistonning Surxondaryo, Buxoro va Samarqand viloyatlari bilan bog'langan[1:8].

Voha Pomir-Oloy tog' tizimining ikki g'arbiy tizmalari-Zarafshon va Hisor tog'lari oralig'ida joylashgan bo'lib, shimolda Samarqand viloyati, shimoliy-g'arb va g'arbda Navoiy va Buxoro viloyatlari bilan chegaralanadi. Shimoliy-sharqda baland Chaqirkalon tog'i orqali voha Tojikiston Respublikasi bilan, janubda va janubi-g'arbda Turkmaniston Respublikasi bilan chegaralanadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Vohadagi dastlabki dehqonlarning makonlari ilk temir davridayoq paydo bo'ladi, ahamoniylar davriga kelib, bunday makonlar vohada 5ta - Yerqo'rg'on, Qizildaryo, Guldaryo, Qayrag'och, Tanxozdaryo bo'lgan[2:560]. Antik davrda Qarshi vohasini sug'orish uchun Zarafshon daryosidan uzunligi 200 km li yirik kanal qazilgani ma'lum[3:279]. VII -XII asrlarda Qashqadaryo vohasida sug'orma va lalmi dehqonchilik ancha rivojlangan bo'lib, g'allachilik, uzumchilik, bog'dorchilik, sabzavotchilik dehqonchilikning yetakchi tarmog'i edi[4:101]. Vohada ipakchilik, paxtachilik kabi dehqonchilikning qadimgi tarmoqlari ham ancha rivojlanganligi ma'lum[4:74].



Amir Temur saroyiga kelgan ispan elchisi Klavixoning Kesh atrofida sugʻoriladigan yerlarda gʻallachilik rivojlanganligi, shuningdek, bogʻdorchilik, paxtachilik, poliz ekinlari yetishtirish yaxshi yoʻlga qoʻyilganligi haqida keltirgan maʼlumotlari[5:300] fikrimiz isbotidir.

Qashqadaryo Jinnidaryo, Oqsuv, Tanxoz, Yakkabogʻdaryo, Gʻuzordaryo kabi irmoqlarni oʻziga qoʻshib oladi. U togʻli tor vodiya tez oqsa-da, tekislikka chiqqach daryo oʻzani kengayib, sekin oqadi va quyi qismiga borgach bir necha tarmoqlarga boʻlinib ketadi. Bularning eng muhimlari Maymanoq daryo va Qamashi daryolar hisoblanadi. Sugʻoriladigan yerlar tuprogʻi, asosan, tipik va och boʻz tuproqdan tashkil topgan. Kitob-Shahrisabz soyligida koʻproq qumoq tuproqqa duch kelinadi. Togʻlarda esa balandlik mintaqalari boʻylab tipik boʻz tuproq tarqalgan. Qashqadaryo vohasining adir, togʻli va togʻ oldi tumanlari, sugʻoriladigan tekislik va keng dashtliklardan iborat hududni qamrab olgan boʻlib, tabiiy sharoitning oʻziga xosligi koʻp asrlar davomida voha iqtisodiyotining asosi boʻlgan chorvachilik, sugʻoriladigan va lalmi dehqonchilik rivojiga zamin yaratgan.

XVIII-XIX asrlarda vohadagi mavjud yer mulklar–davlat yerlari, xususiy yerlar va vaqf yerlaridan iborat boʻlib, davlat yerlari manbalarda turli nomlar bilan atalgan. Zamini amlok, zamini podshoh, mulki podshoh va boshqa shunga oʻxshash nomlar shular jumlasidandir. Davlat yerlari ijaraga berilib, tegishli soliqlar yigʻib olingan. Davlat yerlaridan biri sanalgan oʻlik yerlar manbalarda yabisat deb atalib, bunday nom olgan yerlar asosan, bir vaqtlar foydalanilib, keyin tashlab ketilgan yerlar hisoblangan. Bu kabi yerlarning taqdirini davlat hal etgan yaʼni, sotish, foydalanishga berish (ijara sifatida), mukofot tarzda xususiy qilib berish ham mumkin boʻlgan.

Xususiy yer mulklar foydalanish tartibi, toʻlanadigan soliq hajmi va turiga qarab mulki xaraj, mulki ushr va mulki xurri-xolisga boʻlingan. Xususiy yerlarning asosiy qismi sotib olish orqali diniy amaldorlar qoʻlida toʻplangan edi, shuningdek, amaldorlar va ulamolar xonlik tomonidan tuhfa qilingan yerlarga ham ega boʻlgan. Yersiz dehqonlar korandalar, chorakorlar va vaqf yerlarida ishlovchi ijaradorlardan iborat edi. Davlat yerlari Shayboniylar davrida Movarounnahrni ishgʻol etishda oʻzbek sultonlariga suyurgʻol, iqto va boshqa shakllarda boʻlib berilgan.

Natijalar va muhokama. Yer-mulk munosabatlarida vaqf yer-mulklar katta oʻrin tutadi. Vaqf yerlar va ularning huquqiy maqomi Burhoniddin Margʻinoniyning «Hidoya» asarida hamda XVIII asrga oid «Huquqiy risola»da[6:1] oʻz aksini topgan. Tadqiqotchilar fikricha musulmon mamlakatlaridagi vaqf yerlar gʻarb dunyosidagi, xususan gʻarbiy Yevropadagi cherkov yer-mulklariga oʻxshash boʻlgan[7:248].



O'rganilayotgan davrda vaqfning sof vaqf, shaxsiy vaqf, vaqf ahli, hamda sulolaviy vaqf-vaqfi av kabi yer mulklari mavjud edi[8:29].

XVI asr «Vaqfnoma» hujjatlarida Qarshi shahri atrofi, Kitob-Shahrisabzning Oqdaryo bo'ylaridagi, Yakkabog'daryo bo'yidagi qishloqlar nomi qayd qilingan. Shayboniylar hukmronligi davrida Samarqand shahridagi madrasalarga vaqf qilib berilgan bir qator quyidagi qishloqlar haqida ma'lumot berilgan: Tangxas (daryo), Kesh, Surxob, Rudak, Jaxshinuy, Bejnom, Shovkand, Shironali, Rojkand, Forisman, Yasoqiyon, Xashidak, YAg'nov, Kuron, Xashidak Poyon, Xashid Yasoqiyon, Andoyi Ahmad Mug'ilon, Qishnoqi Qosim, Chinorlik, A'lamlilik, Hisorak, Obikalon, Chechakboy, Obikarak, Tallisuyunchi, Qo'hisoyoh, Obiko'ndalang, So'fi, Qamish, O'g'riqo'l, Obiqashqa, Siyohob, Obig'ilon, Obisafid, Shervoq, Mankunjar (hozir Mengko'char), G'ubdin, Potron, Vijkat (hozirgi Beshkent), Niyoz, Mirmiron, Sakbodiza, Kukandiza, Putirkat, Ko'hak, Hojihidir, Ruknobod (hozirgi Nukrobod), Jo'ybor, Qorajilg'a, Ko'kijak (hozirgi Ko'chkak), Surxna, Jomxin, Dumishox, Kat.

Qashqadaryo vohasidagi vaqf mulklari asosan Tanxoz, Surxob (Qizildaryo) va Rudak (Qashqadaryo jilg'alaridan) daryolari bo'ylarida joylashganligi yozilgan. Jumladan, Tanxoz (Tanxozdaryo) daryosi bo'ylarida joylashgan va vaqf qilingan mulklarning asosiy qismi dehqonchilik qilinadigan, unumdor yerlardan iborat bo'lgan. Mevali va manzarali daraxtlar ko'p bo'lib, tegirmon va g'alla saqlash joyi (omborxon), ko'tarma ariq mavjudligi hujjatlarda qayd etib o'tilgan.

Qarshi dashtida 10 ming qo'y, 500 tuya, 7 ming ot, 300 qul, minglab tanob yer, do'kon va karvonsaroyga ega bo'lgan Xo'ja Islom haqida ma'lumotlar beriladi. XVII asrga oid hujjatlarda esa Yalangtushbiy 1631 yilda Shahrisabzda 52 ming 500 tangaga 1100 tanob sug'oriladigan yer sotib olganligi ta'kidlanadi. «Matlab ut-tolibin» asaridagi ma'lumotlarga ko'ra Xo'ja Sa'dning o'g'li Tojiddinning Qarshi va Shahrisabzdagi mulklari: 100 ta yer maydoni, 50 ta bog' va uzumzorlardan iborat bo'lgan. XVII asr ikkinchi yarmida Buxoro xonligida siyosiy hokimiyatning markazda zaiflashuvi oqibatida amaldorlar qo'lida juda katta mulklar to'plana boshlaydi. Mahalliy hokimlarning mavqei oshib ketishi oqibatida ular o'rtasida nizolar kuchaydi. Shaharlarning qamal qilinishi, qishloqlarning ekin-tekinlari payhon etilishi, yoshlarni majburlab qo'shinga olinishi xalqni mehnatdan sovutib qo'yadi, hunarmandlar, savdogarlar osoyishta joylar axtarib ko'chib keta boshlaydilar [9:282].

XVIII asrning ikkinchi yarmiga kelib, ishlab chiqarish kuchlarining taraqqiyoti natijasida iqtisodiy yuksalish ro'y berdi. Mang'itlar hukmronligi davridan mamlakatda ichki nizolarga asta-sekin barham berilib, shaharlar rivojlana boshladi.



Qarshi XIX asr boshlarida iqtisodiy jihatdan taraqqiy etib, amirlikda Buxoro va Samarqanddan so'ng uchinchi o'rinda turgan[10:117].

Buxoro xonligining asosiy dehqonchilik hududlarida g'alla yetishtirish, bog'dorchilik, poliz ekinlari va texnik ekinlar ekish yo'lga qo'yilgan. Bu davrda birgina bug'doyning 10 dan ortiq navlari donli ekinlarning 20 turi yetishtirilganligi to'g'risida ma'lumotlar mavjud. N.Xanikov xonlikda donli ekinlarining 5 turi; bug'doyning 2 turi, arpa, tariq, jo'xori yetishtirilishi haqida ma'lumot berib, hosildor tuprog'i va suv manbalarining yetarliligi bois hosil ko'p olinishini eslatib o'tadi.

Zarafshon vohasining ko'pgina tumanlarida xususan, Buxoro, Qarshi, Samarqand, Miyonqol, Qorako'l va boshqa hududlarida asosan g'alla yetishtirish rivoj topgan edi[11:156].

Shahrisabzda g'alla va sholidan yaxshi hosil olingan[12:56] va poytaxt Buxoroga yuborilgan. Sholi maydonlari Shahrisabzdan tashqari unga yondosh bo'lgan Kitob va Yakkabog' tumanlarida ham yetishtiriladi.

Vohadagi barcha yerlari sug'oriladigan va sug'orilmaydigan dasht yerlarga bo'linib, donli ekinlardan—arpa, bug'doy, kunjut, tariq, sholi, jo'xori, no'xat, mosh kabi mahsulotlar yetishtirilgan. Yerlarning bu kabi ikki guruhga bo'linishi orqali tekis yerlarda suv manbalarining yetarli bo'lganligi sug'orma dehqonchilikning rivojiga zamin yaratgan bo'lsa, tog' oldi hududlarda aynan suv tanqisligi sabab lalmikor dehqonchilik bilan shug'ullanishni taqozo etgan. XIX asrning ikkinchi choragida Qarshida 20 mil sug'oriladigan yer mavjud bo'lib, obikor yerlarda asosan paxta, sholi yetishtirilgan, g'alla va poliz ekinlari lalmikor yerlar bilan bir qatorda obikor yerlarda ham yetishtirilgan. XVIII asr oxirida xonlik hududlariga tashrif buyurgan rus sayyohlari dehqonchilik iqtisodning asosiy tarmog'i ekanligini qayd etishgan va xonlikning katta qismini dashtlar va cho'llar tashkil qilsada daryo vodiylarida, tog' oldi tumanlarda o'zlashtirilmagan yerlar mavjudligi haqidagi ma'lumotlarni keltirib o'tadi.

Paxta yetishtirish bilan vohaning tekislik qismida joylashgan dehqon xo'jaliklari shug'ullangan. Bu kabi ma'lumotlarni o'lkaga tashrif buyurgan sayyohlar ham ta'kidlashgan. XIX asrning 30-yillarida o'lkaga tashrif buyurgan P.Demezov amirlikda paxta 15 apreldan 25 aprelga qadar ekilishi va 15 avgustdan 10 sentabrga qadar yig'ib olinishini, shuningdek Qarshi va Chorjo'y paxtasining sifati ancha pastligini aytib o'tadi. Qashqadaryo, Surxondaryo va Zarafshon vohasi tumanlarida paxtaning g'o'zai safid va g'o'zai makka navlari ekilib, g'o'zai makka navidan yog' olingan. Paxtachilik donli ekinlar, poliz ekinlari va sabzavotlar yetishtirishdan keyingi o'rinda turgan.



O'rta Osiyoda qadimiy an'analarga ega bo'lgan bog'dorchilik boshqa davrlardagi kabi o'rta asrlarda ham yuksak darajada rivoj topgan. Voha bog'dorchiligida uzum, olma, shaftoli, o'rik, anor, yong'oq va boshqa turli mevali daraxtlar yetishtirishi yetakchi o'rin tutadi. A.Kunning ma'lumotiga ko'ra amirlikdagi bog'lar bog', chorbog' va chakalakka bo'lingan bo'lib, bog' bir xildagi mevali daraxtlardan tashkil topgan (olmazorlar, uzumzorlar), bo'lsa chorbog' turli mevali daraxtlardan, chakalak esa manzarali daraxtlardan tashkil etilgan.

Qarshi viloyati bog'dorchiligini rivojlantirishda Juybor xojalari katta rol o'ynaganlar va ular tomonidan bog'lar barpo etilgan. Vohaning barcha hududlarida bog'dorchilik, uzumchilik nihoyatda rivoj topgan. Mevali daraxtlarning ko'plab turlari mavjud bo'lib, hatto ba'zi manbalarda sitrus mevalar yetishtirilganligi to'g'risida ham ma'lumotlar keltirilgan.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, bog'dorchilikda dehqonchilikning asosiy tarmog'i bo'lgan uzumning 13, olmaning 8, muritning 3, nokning 2 navi yetishtirilgan. Yetishtirilgan mevalar asosan Rossiyaga chiqarilgan. Buxoro xonligi bozorlarida 1 botmon quritilgan o'rik 4 tangadan 8 tangagacha sotilgan bo'lsa, Rossiya bozorlarida 15 tangaga, ba'zi joylarda esa 1 tillagacha narxlangan.

Qashqadaryo vohasining Qarshi, Kitob, Shahrisabz, G'uzor kabi tumanlarida uzum yetishtirish yaxshi yo'lga qo'yilgan edi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Природные условия и ресурсы юго-западного Узбекистана. -Т.: Наука, 1965.-С.5 -8.
2. Сагдуллаев А. С. Древнесогдийские памятники. АО 1978 г. - М.: Наука, 1979.- С.560.
3. Мухаммаджанов А.Р. К истории ирригации в кушанскую эпоху. В кн. Центральная Азия в кушанскую эпоху. – М.: Наука, 1975. Т.III.-С.279
4. Лунина С.Б. Культурные и торговые связи средневековых городов и поселений долины Кашкадарьи с сопредельными территориями. Сб.: Культурные связи народов Средней Азии и Кавказа. Древность и средневековье. - М.: Наука, 1990. - С.101.
5. Клавихо Г. История Великого Тамерлана. В кн. Тамерлан. Эпоха, Личность, Деяния. – М.: Гураш, 1992.-С. 300.
6. O'zR MDA I. 322-jamg'arma, 1-yig'ma jild, 1428-ish, 70.0 -1 varaq.
7. Петрушевский И. П. Земледелие и аграрных отношение в Иране в XIII-XIV вв. –М.Л.: Наука. 1960.- С. 248.
8. O'zR MDA. F-1 jamg'arma, 11-ro'uxat, 326-ish, 29-varaq.
9. Ravshanov. P. Qarshi tarixi Toshkent. 1995. B.282
10. Иванов П.П. Очерки по истории Средний Азии. -М., 1958.- С..117.
11. Zahiriddin Muhammad Bobur Boburnoma. - Т., 1989.-. В.156
12. Махмуд ибн Вали. Море тайн относительно доблестей благородных. /Пер. Б.А.Ахмедова. -Т.: Фан, 1977. -С.56.